

21-ASR OFATI KIBERJINOYATCHILIK FALOKATI

Maxmudov Mirzohid Komiljon o'g'li

*"Madad" muassasa shaklidagi Nodavlat notijorat tashkiloti
Navoiy viloyati Uchquduq tuman huquqiy maslahat byurosi xodimi
mahmudovmirzohid35@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan birga yuzaga kelgan global xavf — kiberjinoyatchilik muammosi tahlil etilgan. Kiberjinoyatlar inson huquqlari, davlat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy ishonchga bevosita tahdid solayotgan jiddiy falokat sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan kiberjinoyatchilik tushunchasi, uning asosiy shakllari, iqtisodiy va psixologik oqibatlari, shuningdek, unga qarshi kurashish bo'yicha milliy va xalqaro tajribalar o'r ganilgan. O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy-me'yoriy bazaning shakllanishi, raqamli savodxonlikni oshirish yo'lidagi amaliy choralar haqida fikr yuritilgan. Xulosa qismida esa muallif tomonidan kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'z: kiberjinoyatchilik, axborot xavfsizligi, raqamli tahdid, kiberxavfsizlik, phishing, ransomware, internet firibgarligi, kompyuter jinoyatlari, axborot texnologiyalari, O'zbekiston kiberxavfsizlik siyosati, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi

Kirish

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va global internet tarmog'ining kengayishi XXI asrda insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Axborot-kommunikatsiya vositalari hayotimizni soddalashtirayotgan bir paytda, ular kiberjinoyatchilik kabi yangi va xavfli muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Kiberjinoyatchilik — bu internet va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan noqonuniy harakatlar majmuasi bo'lib, u butun dunyo bo'ylab jiddiy xavf sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu jinoyatlар moliyaviy yo'qotishlar, shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi, davlat va biznes tizimlariga zarar yetkazishi bilan jamiyatning turli jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, kiberjinoyatchilikni "21-asr falokati" deb atash bejiz emas. Maqolada kiberjinoyatchilikning asosiy turlari, uning oqibatlari, O'zbekistonda va dunyoda kiberxavfsizlikni ta'minlash choralarini tahlil qilinadi hamda kelajakdag'i muammolarga yechim topish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism

XXI asr insoniyat uchun texnologik inqiloblar asri bo'lib, raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Internet va axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo'llanilishi yangi imkoniyatlar yaratgani bilan birga, kiberjinoyatchilik shaklida jiddiy xavf-xatarlarni ham keltirib chiqardi. Kiberjinoyatchilik — bu kompyuter va internet tarmoqlari orqali sodir etiladigan jinoyatlar majmuasi bo'lib, u insonlarning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlash, moliyaviy zarar yetkazish, davlat va korxonalar infratuzilmasini buzish kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Kiberjinoyatchilikning eng keng tarqalgan turlari – phishing, ransomware, DDoS hujumlari, ijtimoiy muhandislik va ma'lumotlar bazasiga noqonuniy kirishdir. Bu jinoyatlar iqtisodiyotga milliardlab dollar zarar keltiradi, davlat xavfsizligini zaiflashtiradi va fuqarolarning onlayn ishonchini pasaytiradi. Shu bois, kiberjinoyatchilikni "21-asr falokati" deb atash o'rnlidir.

O'zbekiston Respublikasi ushbu muammoni hal etishda qonunchilik bazasini mustahkamlab, maxsus kiberxavfsizlik tizimlarini yaratmoqda. Shuningdek, fuqarolarning axborot madaniyatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Kiberxavfsizlik faqat davlat darajasida emas, balki har bir insonning mas'uliyati ekanini anglab yetishimiz lozim. Kelajakda kiberjinoyatchilik bilan samarali kurashish uchun xalqaro hamkorlikni rivojlanterish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va keng jamoatchilikni onlayn xavfsizlik haqida doimiy ravishda xabardor qilish zarur. Shu tariqa, raqamli dunyo xavfsizligi ta'minlanadi va yangi texnologiyalar insoniyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Xulosa

Kiberjinoyatchilik — zamonaviy jamiyatning eng jiddiy va xavfli tahdidlaridan biridir. Uning tezkor rivojlanishi va murakkab usullari iqtisodiyot, davlat xavfsizligi va fuqarolarning shaxsiy hayotiga katta zarar yetkazmoqda. Shu bois, kiberjinoyatchilikni "21-asr falokati" deb atash o'rnlidir. Kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun kuchli qonunchilik, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro hamkorlik va eng asosiysi, fuqarolarning axborot madaniyatini oshirish talab etiladi. Har bir inson o'zining raqamli xavfsizligi uchun mas'ul bo'lib, ehtiyyot choralarini ko'rishi zarur. Faqat shunday holatda raqamli dunyoda ishonchli va xavfsiz hayot barpo etish mumkin. Shu sababli, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash butun jamiyat va davlatning ustuvor vazifasiga aylanishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni, 2022-yil.
2. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Cybercrime and Cybersecurity, 2023.



3. CERT.uz – O'zbekiston Kompyuter favqulodda holatlar markazi rasmiy sayti.
4. BMT Global Cybersecurity Agenda, 2024.
5. INTERPOL va Europol rasmiy hujjatlari va yillik hisobotlari, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi nashrlari, 2023